

UO'K(UDC, УДК): 81-26

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA (BIRDAN BESHGACHA BO'LGAN) NUMERATIVLI FRAZELOGIZMLARNING MILLIY- ETNIK XUSUSIYATLARI¹⁴

Jurayev Ziyodbek Nurmamatovich

Andijan davlat chet tillari instituti dotsenti

Andijan, Uzbekistan

e-mail: boss.ziedbek@mail.ru

tel.: +998934402328

ORCID: 0009-0005-4924-5011

ANNOTATSIYA

Dunyo tillarida shunday numerativlar mavjudki, ular frazeologik birliklar tarkibida o'ziga xos milliy, ijtimoiy-madaniy hamda kommunikativ-pragmatik ma'no tashiydi. Shuning uchun ham ularni turli lisoniy va nutqiy vaziyat va kontekstlarda qiyosiy tadqiq etish bugungi kun antroposentrik tilshunoslikning dolzarb, kam o'rganilgan masalalaridan biridir. Aynan tilda, uning leksik va frazeologik fondida sotsiumlarning ichki va tashqi olam haqidagi tassavurlari, obrazlari, ularning interpretatsiyasi, ularga aks berilgan baho va munosabatlar millatning milliy xarakteri, mentaliteti aks etadi. Shuni ta'kidlash joizki, turli millat vakillari, hattoki turli ijtimoiy qatlamga mansub etnik guruhlar olam va uning qismlarini turlicha idrok etadilar, turlicha izohlaydilar va baholaydilar. Bu esa til va nutq birliklarida, jumladan, numerativli frazeologizmlar, maqol va matallar yordamida obyektivlashadi. Lisoniy ifoda vositalarining zotiy va zoxiriy mundarijasida kuzatiladigan tillararo farqli jihatlarini aniqlash, bunga sabab bo'luvchi lisoniy va nolisoniy omillarni ko'rsatib berish madaniyatlararo va tillararo interferentsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik borasida foydali nazariy va asliy bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Shu jihatdan ushbu maqolada numerativli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish maqsad qilib qo'yilgan.

KALIT SO'ZLAR

Numerativli frazeologik birliklar, antroposentrik tilshunoslik, sotsiumlarning, milliy xarakter, mentalitet, etnik guruh, lingvomadaniyat, numeratsiya, etnolingvistika, majoziy va intellektual til, gipoteza, urf-odat va an'analar, ruhiy qarashlar, madaniyat.

Received: March 5, 2025

Accepted: March 19, 2025

Available online: May 2, 2025

¹⁴ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Jurayev Z. Ingliz va o'zbek tillarida (birdan beshgacha bo'lgan) numerativli frazeologizmlarning milliy-etnik xususiyatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 195-209.

НАЦИОНАЛЬНО-ЭТНИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ НУМЕРАТИВНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ (С ЧИСЛИТЕЛЬНЫМИ ОТ ОДНОГО ДО ПЯТИ) В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Жураев Зиёдбек Нурмаматович

Доцент

Андижанский государственный

институт иностранных языков,

Андижан, Узбекистан

Email: boss.ziedbek@mail.ru

телефон: +998934402328

АННОТАЦИЯ

В языках мира существуют такие нумеративы, которые в составе фразеологизмов передают определенное национальное, социокультурное и коммуникативно-прагматическое значение. Поэтому их сравнительное изучение в различных языковых и речевых ситуациях и контекстах является сегодня одной из актуальных и малоизученных проблем антропоцентрической лингвистики. Именно в языке, в его лексико-фразеологическом фонде фиксируются представления общества о внутреннем и внешнем мире, их образы, интерпретация, отраженные в них оценки и установки, национальный характер и менталитет. Следует отметить, что представители разных национальностей и даже этнических групп, принадлежащих к разным социальным слоям, по-разному воспринимают, интерпретируют и оценивают мир и его части. Это объективируется в языковых и речевых единицах, в том числе нумеративных фразеологизмах, пословицах и поговорках. Выявление межъязыковых различий, наблюдаемых во внутреннем и внешнем содержании языковых средств выражения, а также установление языковых и неязыковых факторов, их обуславливающих, дает возможность получить полезные теоретические и практические знания для предотвращения межкультурной и межъязыковой интерференции. В связи с этим в данной статье ставится задача изучения лингвокультурологических особенностей нумеративных фразеологических единиц.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Нумеративные фразеологизмы, антропоцентрическая лингвистика, общество, национальный характер, менталитет, этническая группа, языковая культура, нумерация, этнолингвистика, образный и интеллектуальный язык, гипотеза, обычаи и традиции, духовные воззрения, культура.

NATIONAL-ETHNIC CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGISMS WITH NUMERALS (FROM ONE TO FIVE) IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Ziyodbek Nurmamatovich Juraev

Associate professor of
Andijan State Institute of
Foreign Languages,
Andijan, Uzbekistan

e-mail: boss.ziedbek@mail.ru

tel.: +998934402328

ABSTRACT

There exist phraseological units in various languages that contain numerical elements and convey distinct national, socio-cultural, and communicative-pragmatic significance. Therefore, their comparative study in various linguistic and speech situations and contexts is one of the current, little-studied questions of anthropocentric linguistics today. It is in the language, in its lexical and phraseological fund that the ideas, images of the inner and outer world of society, their interpretation, the assessments and attitudes reflected in them, the national character and mentality of the nation are reflected. It is worth noting that representatives of different nationalities and even ethnic groups from different social strata perceive, interpret and evaluate the world and its parts differently. This is objectified in language and speech units, including phraseological units with number components, proverbs and sayings. The identification of interlinguistic differences in the intrinsic and extrinsic content of linguistic expressions, along with an analysis of the linguistic and non-linguistic factors that contribute to these differences, presents an opportunity to acquire valuable theoretical and practical insights in order to mitigate intercultural and interlingual interference. The purpose of this article is to examine the linguocultural characteristics of phraseological units containing numerical elements.

KEY WORDS

phraseological
units with numerals,
anthropocentric
linguistics, societies,
national character,
mentality, ethnic group,
linguistic culture,
numeration,
ethnolinguistics, figurative
and intellectual language,
hypothesis, customs and
traditions, spiritual views,
culture.

KIRISH

Bugungi kun lingvistikasida numeratsiya faqat grammatik kategoriya emas, balki dunyo tasvirining lisoniy, lingvomadaniy hamda etnolingvistik komponenti sifatida ko‘rilmoqda. Raqamlar ramziyligini o‘rganish koinotni qamrab oluvchi majoziy va intellektual tilning xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayon raqamlar koinotni, insonni va tasvir tizimini raqamli kod elementi sifatida belgilash usuli bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, numeratsiyalar inson tafakkurining muhim konseptual tizimini va madaniyatning axloqiy jihatdan o‘zgarmas xususiyatini tashkil etuvchi omil sifatida qoraladi. (Фаттах Мохаммед Абу эль-Иля. 2018. 168).

Frazeologiyaning har bir komponenti bizga millat haqida gipotezani shakllantirishga yordam beradi. Bu iboralar qaysi xalqda qo‘llanishiga qarab, o‘sha xalqning geografik o‘rni, iqlimi, diniy tasavvuri, urf-odat va an‘analari, ruhiy qarashlari, turmush tarzi, o‘ziga xos dunyoqarashi va umuman, madaniyatiga bog‘liq bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi.

Milliy-madaniy ko‘rsatkich sifatida talqin etilayotgan numeratsiyalar har bir xalqning ma‘naviy tafakkuri, dunyoqarashi, milliy mentalitetini ifodalovchi o‘ziga xos lingvomadaniy belgilardir. Vaqtlar o‘tgan sari raqamlar milliy-madaniy kod darajasiga ko‘tarilib, muayyan xalqning marosimlari, urf-odatlari va hayot tarzini ifodalovchi ko‘rsatkichlar qatoridan joy oldi-ki, hatto ularning xususiyatlari va inson hayotidagi o‘rni masalalarini o‘rganuvchi maxsus fan – numerologiya fani paydo bo‘ldi. Insonlar raqamlarga ilohiy “libos” kiydirdilar, natijada turli millatlarda raqamlar bilan bog‘liq o‘ziga xos qarashlar maydonga keldi. Ularning ba‘zilari xosiyatli, ba‘zilari xosiyatsiz tus oldi. (Jalolova M. 2016. 2).

Shu o‘rinda ingliz va o‘zbek tillarida birdan o‘ngacha bo‘lgan numerativli frazeologizmlarning milliy-etnik xususiyatlari birma-bir tahlil qilishga harakat qilamiz.

Numeratsiyalar ingliz va o‘zbeklarning urf odatlari va madaniyatiga juda keng ta’sir qilib ko‘plab frazeologik birliklarni tashkil topishida muhim komponent sifatida ishtirok etadi va quyidagi misollarda *bir* sonining birlik, yakdillik ma’nosini o‘zida aks ettiruvchi misollarni ko‘rib chiqamiz: *be one flash (eng)- bir tan bir jon*

bo'lmoq (uz); as one man (eng); one and all (eng) - birdamlik bilan, yakdil (uz); bir yoqadan bosh chiqarmoq, bir ovozdan. Masalan: To'rtovlon bitta bo'lsa to'lmaganni to'ldirar, oltovlon ola bo'lsa og'zidagini oldirar. (Кунин А. В. 1984. 942).

ASOSIY QISM

Yuqoridagi ma'nosiga qarama-qarshi tarzda *bir* soni yakkalik, yolg'izlik, kuchsizligini anglatish uchun ishlatilishi mumkin: *yolg'iz otning dong'i chiqmas; one swallow does not make a summer (eng) – bir qaldirg'och bilan yoz kelmaydi.*

“*Bir*” numeratsiyasi ingliz va o'zbek madaniyatida noaniqlikni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin va “*bir*” sonining bu ma'nosi ko'pincha ertaklarda qo'llaniladi: *once upon a time (eng) - bir bor ekanda, bir yo'q ekan (uz).* (Тахо-Годи А.А. 1980. 16 – 57). Shu o'rinda, xalqimizning quyidagi numerativli maqollarini misol qilib oldik: “*Bir qo'ltiqqa ikki tarvuz sig'mas*”, “*Bir boshini ikkita qilmoq*”.

1. “*Bir boshini ikkita qilmoq*” iborasidagi “*bir*” leksemasi boshqa raqamning madaniy kodi bilan almashtirilgan, “*ikki*” ma'noni kuchaytirib, “*yolg'iz bo'lish mumkin emas*”, “*yolg'iz hech narsani eplay olmaslik*” degan ma'noni beradi. *Bir xil, o'xshash.* Ingliz tilida bu, birinchi navbatda, salbiy istehzoli ma'noli frazeologik birikmalardir: “*One and the same*” — *bir xil, o'xshash, birga-bir.* O'zbek tilida bir-biriga har jihatdan o'xshash kishilar haqida gap ketganda “*zuvalasi bir joydan olingan*” iborasi qo'llaniladi. Masalan: *Sizga gapirib, ovozdan ajrash hech narsa emas. Botirov bilan sizning zuvalangiz bir joydan olinganga o'xshaydi.*

2. “*Bir tan bir jon bo'lmoq*” iborasi hamda “*bir tan bo'lmoq*” iboralari doimo ijobiy ma'noda ishlatilsa, “*bari bir go'r*”, “*hammasi bir go'r*” iboralari faqat salbiy ottenkaga ega iboralardir. “*Tuproq'i bir joydan olingan*” iborasi diniy taxminga asoslanib, “*Alloh hammani loydan yaratgan*” degan fikrga dalil sifatida ishlatiladi.

3. *Ommaviylik, umumiylik, yakdillik.* Bu turkumga misol qilib ifodalovchi iboralarni keltirish mumkin. Ingliz tilida: “*One and all*” — *hamma, barcha odamlar, “everyone is like one person” (hamma bir kishi kabi), be one flash - bir tan bir jon bo'lmoq, as one man; one and all - birdamlik bilan, yakdil; bir yoqadan bosh chiqarmoq, bir ovozdan.* O'zbek tilida: “*hammani birdek ko'rish*” iborasi ijobiy

ma'noga asoslanadi, chunki Islom dinida hammani teng ko'rish tushunchasi hadislarda ham targ'ib qilingan.

4. *Bir marta, intensiv ravishda.* Bu ma'nodagi frazeologik birikmalar o'zbek va ingliz lingvistikasida o'xshash ma'no va belgilarda mujassamlashgan. *"In one breath"* – *"bir nafasda"*, *"with one word"* – *"bir so'z bilan"*, *"sit around one table"* – *"bir stol atrofida o'tirish"*.

Faqatgina o'zbek lisoniy madaniyatiga xos bo'lgan *"bir jag'ga bir botmon"* frazeologik birikmasi boshqa xalqlarga mansub bo'lmagan farazni beradi: "Ilgari har bir oila butun qishki rizqini kuzda olib qo'yardi. Keyin har bir jag', ya'ni oiladagi har bir jon uchun (yangi tug'ilgan chaqaloq ham bu hisob-kitobga kiritilgan), bitta botmon (botmon - 898,5 g ga teng og'irlik o'lchovidir) bug'doy, yarmi guruch, guruch miqdorining yarmi, pyuresi yarmi va hokazolar g'amini yer edi, shuning uchun oziq-ovqat butun qish uchun yetarli edi.

O'zbek tilida bir tiyin ham yo'q (so'mning yuzdan biriga teng pul, shuningdek, bunday qiymatga ega bo'lgan kichik chaqa) etnomadaniy voqelik – *"penny, cent"* – *"chaka"*, *"tiyin"* milliy valyutalarini frazeologik birikmalarda uchratish mumkin: Mirshodi aka haqqiga bir tiyin ham ololmagach, shumshayib qishlog'iga qaytdi. *"Bir quloqdan kirib boshqasidan chiqmoq"* – *"in one ear and out the other"* frazeologizmlari *"birdan ikkinchisiga"* munosabati bilan birlik bo'lib, har ikki tilda ham bir xil ma'noni bildiradi.

Umuman olganda, o'zbek tilidagi *bir* leksema juda faol bo'lib, ularning izohi Sh. Rahmatullaevning *"O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"*da, M. Abdurahimovning *"Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'ati"*da, Mahmud Sattorning *"O'zbekcha nutqi qiziq"* kitobida, Sh. Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning *"Ma'nolar"* kitoblarida taqdim etilib, misollar bilan boyitilgan. Yuqoridagi kitoblarni tahlil qilgan holda, *"bir"* raqami bilan ifodalaniladigan frazeologik birliklarni misol tariqasida keltirib o'tmoqchimiz: *bir boshga* – *bir o'lim*, *bir bulduriq uch qo'raga tatiydi*, *bir jag'ga bir botmon*, *bir tulki yetti borini etaklaydi*, *bir anor ming bemorga davo*, *bir balosi bo'lmasa*, *shudgorda quyruq na qiladi*, *bir yomonning bir yaxshiligi ham bor*, *bir odam o'moch bilan*,

yettovlon cho'mich bilan, bir onadan alvon xil bola tug'iladi, bir ochlikning bir to'qligi bor, bir savatga – bir tepki, bir tayoq yuz boshni yoradi, bir ezma topadi – bir vaqt, bir qo'y ketidan ming qo'y to'yadi (Шомақсудов III., Шораҳмедов III. 2001. 36-42). Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilidagi *bir* leksemasi nutqda juda faol bo'lib, frazeologik birliklardagi bu komponent turli semantik sifatlarga ega.

Ikki sonining madaniy belgisi juftlik, ikkilik, qarama-qarshilik ma'noni anglatadi. *Ikki* sonini ziddiyatlar soni deb ham atashadi. Bu insonning dunyoni kategoriyalashda binarlik tamoyilidan keng foydalanishi bilan bog'liq, ya'ni inson zamon, makon, tabiat, astral hodisalar, madaniy qadriyatlar, his-tuyg'ularni qarama-qarshiliklar sifatida idrok etadi. Butun dunyo *ikki* qarama-qarshi qutbga bo'lingan deb bilingan, ya'ni *past-baland, yorug'lik va zulmat, osmon va yer, tirik va jonsiz, erkak va ayol*.

Ikki numeratsiyasi hodisalarni, bir-biriga qarama-qarshi tasvirlashda ishlatilishiga misol sifatida islomiy ta'limotda mavjud bo'lgan *ikki* farishta haqidagi rivoyatni keltirish mumkin. *Ikki* dunyoning mavjudligini, ya'ni dunyo va oxiratni bildirish uchun ham *ikki* sonidan foydalaniladi: *ikkala dunyoda ham-ikki dunyoda ham; ikki dunyo rohatini ko'r; ikki dunyoda aziz bo'l*.

Ikki numeratsiyasining qarama-qarshilikni ifodalovchi ma'nolarini quyidagi misollar yordamida ham ko'rishimiz mumkin: *two of a trade never (or seldom) agree (eng)* — *ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas (uz)*; *when two Sundays come in one week(eng)* — *hech qachon, qizil qor yoqqanda; if you run after two hares, you will catch neither(eng)* — *ikki kemani boshini ushlagan g'arq bo'ladi (uz)*; *two-faced (eng)* - *ikki yuzlamachi (uz)*. Ingliz va o'zbek tillarida *ikki* numeratsiyasi, shuningdek, juftlik ma'nosini bildirish uchun ham qo'llaniladi: *double harness (eng)* — *turmush qurmoq, nikohlanmoq (o'zb. tarjima)*. Bu yerda "*harness*" otlarga taqiladigan egar-jabduq bo'lib, ikkita ot aravaga qo'shilganda "*double harness*", ya'ni juft egar jabduq-bilan qo'shilgan bo'lib bu so'z keyinchalik inglizlarda ikkita insonning turmush qurishi, nikohdan o'tishi ma'nosini anglatuvchi frazeologik birlikka aylangan. Bu frazeologik birlikning o'zbek tilidagi ekvivalenti *er-xotin qo'sh ho'kiz (uz)*; *bir boshini ikkita qilmoq* – iboralaridir.

Quyidagi *ikki* raqami va uning sinonimlari ishlatilgan misollarda ham ushbu sonning juftlikni anglatuvchi ma'nosi ifodalangan: *play double (eng), see double (eng) a doubleedged (or two-edged) sword (eng); a twice-told tale (eng); it takes two to make a quarrel (eng)* -qars *ikki qo'ldan chiqadi(uz)*. (Тахо-Годи А.А. 1980. 421).

Uch numeratsiyasi — boshlanish, davom etish va nihoya yoki yakunga ega bo'lgan ma'lum bir ketma-ketlikning to'liqligi va ma'lum bir kichik davr yoki jarayonning tugash ma'nosini anglatish uchun, ya'ni tugallanganlik kabi ma'nolarga ega. Inson hayotining hal qiluvchi vaziyatlarida, shuningdek, har qanday harakatni muvaffaqiyatli bajarish uchun uch marta takrorlashga misollar mavjud. Masalan, o'zbeklarda turmushga chiqayotgan qizdan rozilik so'ralganda uch marta so'ralishi, inglizlarda cherkovga chaqirilayotgan kelin-kuyovlarning ismlari uch marta yangrashi bunga misol bo'ladi. O'zbek tilidagi "*uchdan keyin puch*" iborasidan ham uch sonining tugallanganlikni anglatuvchi ma'nosini ko'rishimiz mumkin; *three cheers (for) (eng) — kimningdir sharafiga uch marta salomatlik tilash yoki xursandchilikni bildirganda* ishlatiladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek va rus milliy ertaklarida juda ko'p uchraydigan "*uch og'a-ini botirlar*", "*tri bogatirya*", "*tri porosyonka*" qahramonlari ham milliy etnik xususiyatida namoyon bo'ladi.

Uch numeratsiyasini muqaddasligi yoki butunlikni ifodalishiga sabab uning ma'nosiga borib taqaladi. Ya'ni *ikki* soni keltirib chiqaradigan qarama-qarshilik va binar ma'nolar ziddiyatining yechimi sifatida kelishidir. *Uch* numeratsiyasining *tugallanganlik, yetarlilik* ma'nosini quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin: *when three know it, all know it (eng)-uch kishi bilgan narsa sir emas (uz); the best fish hid when they are three days old (eng)-mehmonning izzati uch kun(uz)*. (Тахо-Годи А.А. 1980. 632).

Dunyo xalqlari mikrofonni sozlaganda ham *tugaganlik, yetarlilik* ma'nosida *uchgacha* sanaydi. Xristianlik dinida uch soni muqaddas ahamiyatga ega bo'lib ko'plab asosiy marosim, muhim mifologik belgilarini aniqlashda faol qatnashadi. Buni xristianlarning muqaddas kitobi bo'lgan "Injil"da ko'plab uchratish mumkin:

Ibrohim alayhissalomning oldiga o'g'lining yaqinda tug'ilishi haqidagi xabar bilan uchta farishta keladi. Bu "Eski Ahd Uchligi" deb ataladi. Yana bir misolda uchta donishmand chaqaloq Isoga uchta sovg'a olib kelishi. Xristianlarda bo'lgani kabi islom dinida ham uch numeratsiyasining muqaddasligini musulmonlarning dafn va xotirlash marosimlarida ishlatiluvchi iboralarda ko'rishimiz mumkin. Biror kishi vafot etganidan keyin uchinchi kuni o'zbeklar xotirlash marosimini o'tkazishadi: uchini o'tkazish; uchni o'qitish (Qur'on tilovat qilinadi) va dafn va xotirlash marosimidagi uchinchi kun ma'nosini belgilab, vaqtning muqaddas chegarasini ko'rsatadi.

Ko'pincha mifologiyada "uch" numeratsiyasi mukammal tasvir sifatida keladi. Bu, hatto, "ideal tuzilgan" raqam, ya'ni boshi, o'rtasi va oxiri bo'lgan raqam deb hisoblangan. (Топоров В.Н., 1980, 68). Ushbu raqam muqaddas raqamlardan biri hisoblanadi va ilohiy ichimliklar qo'shilishini anglatadi. Ilgari bu raqam ma'budaning uch xil tasvirini ifodalagan. Bu ma'buda bir vaqtning o'zida qiz, ayol va kampir qiyofasida paydo bo'lgan. Xristian dinida uch raqami *Muqaddas Uch Birlikning* ramzi bo'lgan. U hayotning butun qiyofasini, shu jumladan tug'ilish, hayot va o'limni ifodalaydi. Bundan tashqari, u erkak ibtidosining ramzi hisoblanadi. Bu muqaddas raqamga ishonish tufayli ko'plab ibodatlar va afsunlar uch marta takrorlanadi.

Ingliz lingvomadaniyatida bu numeratsiya biron bir o'ziga xos ma'noni anglatmasa-da, bir vaqtning o'zida ham ijobiy ham salbiy ma'nolarda ishlatiladi: *three cheers for* (sog'lik uchun qani oldik(ijobiy)), *(oyoqda tura olmaydigan (salbiy)) three sheets to (or in) the wind*, *two's company, three's a crowd* – (ikkita kalla kalla, uchtasi mahalla (ham ijobiy, ham salbiy)), *bad things come in threes* – (yomonlik qo'sha-qo'sha keladi).

O'zbek tilida "uch" komponentli frazeologizmlar so'zlashuv nutqida ko'proq uchraydi: "men birovni uch pulga olmayman, birov meni bir pulga olmaydi", "uch oylik – ko'kcha boylik", "uch pulim - kuch pulim, bir faqir - jonim faqir" (Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш., 2001, 352); "uch pul", "uch pul bo'lmoq", "uch pul qilmoq", "uch-to'rt og'iz" (Рахматуллаев Ш., 1978, 242).

Tilimizda “to‘rt” raqami ishtirok etgan ibora va tushunchalar juda ko‘p. Masalan, “*boshing oqqan tomonga ketaver*” degan ma’noda “to‘rt tomoning qibla” iborasi qo‘llaniladi. Birovni kutib besaranjom bo‘lgan odamni “ko‘zi to‘rt bo‘ldi” deb tariflaydilar. Bu iborada “to‘rt tomonga qaramoq”, “bezovtalanmoq”, “besaranjom bo‘lmoq” ma’nolari yashiringani sir emas. Shuningdek, jonli so‘zlashuvda “to‘rt yoniga qaramoq”, “to‘rt muchang sog‘ bo‘lsin”, “to‘rt ko‘z tugal ko‘rishmoq” kabi birikmalar ham qo‘llaniladi. Hatto sezgir itlarga ham “To‘rtko‘z” deb ism qo‘yiladi. Aslida esa, to‘rt raqamida hech qanday g‘ayritabiiy sir mavjud emas, u biz amalda qo‘llaydigan sanoq tizimidagi oddiy raqamlardan biridir. Xalq og‘zaki ijodida, jonli so‘zlashuvda bu raqam bilan bog‘liq ibora va birikmalar ko‘p bo‘lgani sababli qadim zamonlarda yashagan bobolarimiz to‘rt raqamiga alohida “mehr qo‘yishgan”.

To‘rt raqamiga alohida e‘tiqod qo‘yish an‘anasi xalqimiz turmushiga chuqur singib ketgan. Adabiyot tarixida shoirlar to‘rt devonni birlashtirib “*Chor devon*” tuzishgani ham ma‘lum. Hatto, o‘rta asrlar tabobatida ham to‘rt raqami alohida mavqega ega bo‘lgan. Qadimgi Hind tabiblari odam tanasi yer, suv, havo, olov kabi to‘rt unsurdan iborat deb bilishgan. To‘rt unsur nazariyasiga asoslangan Ibn Sino esa inson tanasida aylanib yuruvchi to‘rt suyuqlik - qon, safro, shilliq va qora o‘t mavjudligi xususidagi ilmiy kashfiyotni yaratib, tibbiyot taraqqiyotini butunlay yangi o‘zanga burib, uning kelgusi istiqbolini belgilab bergan. Ibn Sino odam tanasidagi suyuqliklarning munosabatiga ko‘ra, inson organizmida bir-biriga o‘zaro ta’sir etuvchi to‘rt kuch, ya’ni mijoz mavjudligini ham aniqlagan. Sharq tabobatida mashhur bo‘lgan issiqlik, sovuqlik, quruqlik va namlik mijozlari haqidagi qarashlar ana shu ilmiy qarash asosida yuzaga kelgan.

Og‘irini yengil qilib bergan kishini yaxshiligi evaziga keksalar “to‘rt muchang sog‘ bo‘lsin” deb alqaydilar. An‘anaviy tasavvurlarga ko‘ra “to‘rt mucha” odam tanasining a‘zolaridir. “To‘rt muchang sog‘ bo‘lsin” deganda kishi tanasining eng zaruriy qismlari – qo‘l, oyoq, ko‘z va quloq omon bo‘lishiga istak bildiriladi. Aslida, bu a‘zolar o‘rniga istagan boshqa a‘zolari ham qo‘llayverish mumkin. Bu o‘rinda ham “to‘rt mucha” atamasi an‘anaviy tarzda qo‘llanaveradi.

Quyidagi misollarda “to ‘rt” numeratsiyasi ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham bir semantika doirasida qo‘llanishi mumkinligini kuzatishimiz mumkin: “to ‘rt devor ichida o‘tirish” frazeologiyasi “to sit (to stay) within these four walls – hech kim bilan aloqasi yo‘q, yolg‘iz, “on all four sides, scatter to the (four) winds” – to ‘rt tarafga ham borishi mumkin, o‘z ma‘nosida o‘zbekcha o‘xshashi “to ‘rt tomon(i) qibla” – bu frazeologiyada faqat “qibla” lingvomadaniy atamasi bo‘lib; qibla - musulmonlar namoz o‘qiyotganda yuz tutadigan yo‘nalish, Makka shahri joylashgan taraf milliylik ifodasini ko‘rsatadi.

“Hit on all (four, six, etc.) cylinders” = “Be on all (four, six, etc.) cylinders” = “Run on all (four, six, etc.) cylinders” frazeologizmi “bor kuchi bilan ishlash, bor kuchi bilan mehnat qilmoq” ma‘nosini ifodalasa, o‘zbek tilidagi “to‘rt og‘iz”, “to‘rt enlik” frazeologizmlari “juda oz” degan ma‘noni bildiradi. Masalan: Pahlavon traktorchini ishini navbatchiga topshirgach, qadrdon do‘sti Bekbo‘ta bilan to‘rt og‘iz askiya qilib, hol-ahvol so‘rashmoq uchun kelardi.

Demak, bu to‘rt tarafga o‘tish emas, balki norozilik ustun kelganda oxirgi chora qo‘llaniladigan holatdir. Umuman olganda, to‘rt raqamining semantik tarkibiy qismlariga asoslangan iboralar hayotning barcha jihatlariga taalluqlidir va ular bizning hayot kabi qadimiy ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida “besh kunlik dunyo”, “besh kunlik davron”, “ajalidan besh kun oldin o‘lmoq”, “besh kunligi bormi, yo‘qmi”, “oyning o‘n beshi qorong‘i, o‘n beshi yorug‘”, “besh qo‘l barobar emas”, “besh tashla” kabi ibora va aytimlar ko‘plab uchraydi. “Juda yaxshi bilmoq” ma‘nosida “besh qo‘lday bilmoq” jumlasini qo‘llaniladi.

Do‘stlar hol-ahvol so‘rashganda “ishlar qalay” degan savolga “ishlar besh” deb javob beriladi. Bunday numerativli frazeologik birliklar tarkibidagi besh raqamining ma‘noviy xususiyatlari sanoq usullarining kelib chiqishi bilan aloqador bo‘lib, qadimgi tasavvurlarga borib taqaladi.

“Besh kunlik dunyo” iborasi qadimgi sanoq tizimi an‘analari ta‘sirida shakllangan kun hisobi bilan bog‘liq. Dostonlarimizdagi “besh kunlik dunyo”, “ajalidan besh kun oldin o‘lmoq” kabi iboralarning asosi besh kunlik vaqt hisobi

an'anasiga borib taqaladi.

“Fifth wheel (in a cart)” – (beshinchi g'ildirak) frazeologizmi “*biror bir ishda ortiqcha odam*”ga nisbatan ishlatiladi. Ingliz tilidagi “in five minutes” iborasining analogi o'zbek tilida mavjud emas, “yaqinda qandaydir lavozim egasi bo'ladi” mazmunidagi bu ibora ingliz xalqi so'zlashuv nutqida ko'p uchraydi. Bu raqam (2+3) ayol va erkaklarning dastlabki birlashmasining ramzi hisoblanadi. Bu erkak va ayolning birlashishi ya'ni nikoh deganidir. Qadimgi olimlarning fikriga ko'ra, bu raqam 4 asosiy element va kvintessensiyaning kombinatsiyasi edi.

O'zbek tilida “*besht*” soniga bog'liq quyidagi frazeologizmlar qo'llanadi: “*besht barmog'ini og'ziga tiqmoq*”, “*besht panjasini og'ziga tiqmoq*”, “*besht qo'lini og'ziga tiqmoq*”, “*tilini besht qarich qilmoq*”, “*besht barmoqning birini tishlasang, bari og'rir*”, “*besht qo'l og'izga sig'mas*”.

Ingliz tilida *give me five* (*besht tashlang*), *juda mamnun holatini ko'rsatish uchun ishlatiladi*), *a bunch of fives* (*qattiq musht, zarba*). Bu “*besht*” bilan bog'liq bo'lgan numerativli ibora norasmiy ishlatilib, ijobiy ma'noni bildiradi. Bundan tashqari, “*besht*” raqami tez-tez murojaat qilish uchun ishlatiladi. Vaqtni ifodalashda ham “*besht*” raqamidan keyin foydalaniladi (masalan, *a five - minute break* (*besht daqiqalik tanaffus*)ning qisqa shakli, ya'ni dam olish uchun qisqa tanaffus qilishni anglatadi), *besht barmog'ini og'ziga tiqmoq - hovliqib, lozim bo'lganidan ko'ra ortiqroq narsani ro'yobga chiqarish uchun intilmoq, nafsga berilmoq*. “*Know how many beans make five*” = “*besht-oltita narsadan xabardor bo'lmoq, besht-olti narsa bilmoq*”.

XULOSA

Guvohi bo'lganimizdek, o'zbek tili va madaniyatiga doir numerativli frazeologik birliklar hayotning turli jabhalariga doir bo'lib, ularda majoziy ma'no hukmronlik qiladi. Shuningdek, frazeologik birliklar ma'nosiga ko'ra ijobiy va salbiy turlarga bo'lishni o'rinli hisobladik. Tahlili keltirilgan o'zbek tilidagi numerativli frazeologik birliklar orasida halol, harom, omoch singari lingvomadaniy tushunchalar uchradi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi tahlili keltirilgan numerativli frazeologik birliklar

madaniy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi numerativli frazeologik birliklarning shakl va ma'no jihatdan o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Ularda har ikkala tilning milliy-madaniy xususiyatlari o'z aksini topgan. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, numeratsiyalar orqali anglatilgan chuqur ma'noli frazeologik birliklar har ikkala tilda ham yetarlicha uchraydi va ular madaniyatni aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, raqamlarning o'zida g'ayrioddiy sehrni yashirishi haqidagi qarashlar, ularning turli xalqlar hayoti, adabiyoti, og'zaki ijod namunalari va madaniyatida tutgan o'рни hamda muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. O'zida ramziylikni ifodalovchi ba'zi numeratsiyalarning maxsus guruhini qiyosiy o'rganish ularning shakllanish tarixini va ma'lum bir lingvomadaniyat vakillari dunyoqarashining rivojlanishi, voqelikni idrok etish xususiyatlarini, madaniy qadriyatlarini o'rganish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахимов М. Қисқача ўзбекча-русча фразеологик луғат. —Тошкент: Ўқитувчи, 1980. — б. 43.
2. Вовк. О.В. Энциклопедия знаков и символов. —Москва: Вече, 2006. — с. 39.
3. Кунин А. В.Англо-русский фразеологический словарь. — М.: Русский язык, 1984. — с. 942.
4. Муратова Р.Т. Число тугыс 'девять' в башкирской языковой картине мира // Подвижники сибирской филологии: В.А.Аврорин, Е.И.Убрятова, В.М.Наделяев. — Новосибирск, 2007. - С.166-169;
5. Муратова Р.Т. Символика числа тугыс 'девять' в башкирском языке // Феномен Евразийства в материальной и духовной культуре, этнологии и антропологии башкирского народа. - Уфа, 2009. — С.214-216.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. —Тошкент: Ўқитувчи, 1978. — б. 85-86, 242
7. Содиқова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. — Т.: СЭ, 1989. — с. 182-184.

8. Тахо-Годи А.А. Термин «символ» в древнегреческой литературе // Образ и слово. Вопросы классической филологии, – Вып. VII. — М.: Изд-во Московского университета, 1980. — с. 16 – 57
9. Фаттах Мохаммед Абу эль-Иля. Лингвокультурологический анализ фразеологизмов с числовым компонентом в русском и арабском языках // Политическая лингвистика. 2018.-№1(67). – с. 168.
- 10.Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – б. 352.
- 11.Jalolova M.Voris yoshlar jurnali. 2016 yil, 4-son. – b 2.
- 12.Kalsum Madkan. Dalaljat Al-Adad fi al- Kuran al-Karim (Semantika chisla v Svyashchenom Korane) //Al – Asar: zhurn.-Alzhir. 2012. №14, iyun. – s. 113.

REFERENCES

1. Abdurahimov M. (1980) *Brief Uzbek-Russian phraseological dictionary*. Tashkent. Teacher. P. 43.
2. Vovk. O.V. (2006) *Encyclopedia of signs and symbols*. Moscow. Veche. P. 39.
3. Kunin A. V. (1984) *Anglo-Russian phraseological dictionary*. Moscow. Russian language. P. 942.
4. Muratova R.T. (2007) *Chislo tugys 'devyat' v Bashkir language picture mira*. Podvizhniki sibirskoi filologii: P.166-169;
5. Muratova R.T. (2009) *Symbolism means 'devyat' in the Bashkir language*. Phenomenon of Eurasia in material and spiritual culture, ethnology and anthropology of the Bashkir nation. Ufa. P.214-216.
6. Rahmatullaev Sh. (1978) *An explanatory phraseological dictionary of the Uzbek language*. Tashkent. Teacher. P. 85-86, 242
7. Sodikova M. (1989) *Kratkiy Uzbek-Russian phraseological dictionary*. Tashkent. P. 182-184.
8. Tahoe-Godi A.A. (1980) *The term “symbol” in ancient Greek literature*. *Obraz i slovo. Voprosy classical philology*. Vyp. VII. — Moscow. Moscow University Press. P. 16-57

9. Fattah Mohammed Abu el-Ilya. (2018) *Lingvokulturologichesky analysis of phraseology with mathematical components in Russian and Arabic language*. Politicheskaya lingvistika. 1(67). P. 168.
10. Shomaksudov Sh., Shorahmedov Sh. (2001) *A storehouse of meanings*. Tashkent. National Encyclopedia of Uzbekistan. P. 352.
11. Kalsum Madkan. (2012) *Dalaljat Al-Adad fi al- Qur'an al-Karim (Semantika chisla v Svyashchennom Korane)*. Al - Asar: zhurn. Alzhir. No.14, June. P. 113.
12. Nurmamatovich, J. Z. (2024). *Semantic features of the phraseological units with numerative components "three" in english and uzbek*. *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar*, 1(1), 402-404.
13. Nurmamatovich, J. Z. (2024). *Different meanings of the phraseological units with numerative component "one" in english and uzbek*. *Образование и наука в xxi веке*, (48-3).